

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**THE PROCESS OF ADAPTATION OF YOUTH TO FAMILY LIFE****Gulrukh Sirliboyeva***Master's student**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** marriage, upbringing, worldview, spiritual preparation for marriage, culture of interaction, psychological processes.

**Received:** 04.04.22**Accepted:** 06.04.22**Published:** 08.04.22

**Abstract:** This article discusses the process of adaptation of Uzbek youth to family life and the difficulties that arise in this process, as well as the spiritual readiness of newlyweds for marriage and its importance. At the same time, a comparative analysis of how these processes take place in other eras and peoples is made.

**YOSHLARNING OILAVIY HAYOTGA MOSLASHISH JARAYONI****Gulruk Sirliboyeva***Magistratura talabasi**O'zbekiston Milliy Universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** nikoh, tarbiya, dunyoqarash, nikohga ma'naviy tayyorgarlik, o'zaro muomala madaniyati, psixologik jarayonlar.

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada o'zbek yoshlaringin oilaviy hayotga moslashish jarayoni va bu jarayondagi yuzaga keladigan qiyinchiliklar, shu bilan birgalikda, yangi turmush qurgan kelin-kuyovlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi va uning ahamiyati haqida mulohaza yuritiladi. Shu bilan birgalikda, bu jarayonlarni boshqa davr va xalqlarda qanday ro'y berishi qiyosiy tahlil qilingan.

## ПРОЦЕСС АДАПТАЦИИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

**Гулрух Сирлибоева**

*Магистрант*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** брак, воспитание, мировоззрение, духовная подготовка к браку, культура взаимодействия, психологические процессы.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс адаптации узбекской молодежи к семейной жизни и трудности, возникающие в этом процессе, а также духовная готовность молодоженов к браку и ее значение. При этом делается сравнительный анализ того, как эти процессы протекают в других эпохах и у народов.

### KIRISH

Oila va nikoh masalalarini tadqiq qilish doimo qiziqarli bo'lib kelgan bo'lsada, XXI asrga kelib oila-nikoh masalalari, bu jarayonda vujudga keladigan turli ijobjiy va salbiy vaziyatlarni, oiladagi psixologik muhitni o'rghanish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning oila va oilaviy munosabatlarga qarashlari ham o'zgarib borayotgani yoshlarning oilaviy hayotga moslashishida ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Xususan, bir muhitda yashagan yoshning o'zi uchun mutlaqo begona muhitga borishi va bu muhitga moslashishi ruhiy jarayonga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

O'zbek mentalitetidan kelib\_chiqadigan bo'lsak,yangi turmush qurgan kelin –kuyovlarning nuklear oilada emas, ko'p hollarda ikki bo'g'inli katta oilalarda yashashi bu moslashish jarayonini bir muncha uzoqroq davom etishiga olib keladi. Bunga sabab sifatida katta avlod bilan yosh avlodning dunyoqarashidagi nomutonosibliklarni keltirish mumkin. Mavzuning dolzarbligi sifatida shuni aytish mumkinki, jamiyatning asosiy bog'ini bo'lgan oilaning mustahkamligi uni tashkil etuvchi yoshlarning oila qurishga va unga moslashishiga ko'p jihatdan bog'liq.

### ASOSIY QISM

Maqola etnologiya metodlari- etnografik dala tadqiqotlari, kuzatuv, 2022-yil yanvar oyida Jizzax viloyati yoshlari tomonidan olingan anketa so'rovleri natijalarini solishtima-qiyosiy tahlil qilishga asoslanib yozilgan.

XIX-XX asrlarda xalqlarning etnik xususiyatlarida ham ham sekinlik bilan o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu boshqa tomondan olib qaralganda turli millatlararo yaqinlashuv tufayli oilaviy munosabatlardagi o'ziga xoslik, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammosini keskinlashtiradi. Chunki, millatlararo yaqinlashuv natijasida turli millat vakillari o'rtasida nikohlar vujudga keldi. Turli millat vakillarining dunyoqarashidagi va boshqa jihatlardgi farqlar turli

muammolarni vujudga keltirdi. Shu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar masalalarini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari so'nggi yillarda dunyo miqiyosida jadal tus olib bormoqda. Xususan, chet el psixolog va sotsiolog olimlari Fransiyada – A. Villi., P. Jane; Germaniyada – T. Shrayer; Amerikada – K.Byuler., V.Metyuza., S.Xoll., D.Chaypi; Shvetsriyada – E.Klapared va boshqa ko'plab tadqiqotchilar tomonian bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirildi. O'zbek tadqiqotchilari tomonidan ham bu maslala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, Xususan, Karimova B.M "O'zbek yoshlarida oila to'grisidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi", Sog'inov N.A "O'zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixalogik xususiyatlari", Lutfullayeva N.A "Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy-psixalogik xususiyatlari", shu bilan birgalikda, nikoh munosabatlari bo'yicha etnologik tadqiqotlar sirasiga Z.A. Rasulovaning " Toshkent shahri o'zbeklarining oila-nikoh munosabatlari" kabi ilmiy ishlarni aytib o'tish joiz.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida, shu qatorda, O'zbekistonda ham yoshlar o'rtasida ajrimlar sonining keskin ko'payishi kuzatilmogda. Xususan, 2021-yil 4 oy davomida 12 806 ta oilaviy ajrashish kuzatilgan. Bu o'tgan davrga nisbatan 4897 ta ko'p. Bu ajrimlarning 11 foizdan oshiqro'g'i yoshlarning oila qurishga tayyormasligi tufayli sodir bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida yosharning oilaviy hayotga tayyorgarlikning yo'qligi va oilaviy hayotga moslashish jarayonidagi qiyinchiliklarni keltirish mumkin.. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uzoq davrlardan buyon shakllanib kelayotgan jarayondir. Xususan, oila boshlig'ini tarbiyalashning ilk g'oyalari ko'p asrlik kundalik tajriba asosida empirik tarzda shakllangan.Ular oiladan-oilaga, avloddan-avlodga oila va maishiy hamda milliy etnik marosimlar, urch-odatlar, xalq og'zaki ijodi orqali o'tib kelgan. Xususan, o'zbek an'anaviy tarbiyasida ham o'g'il bolalarni kelgusida "erkaklik" rolini bajarishga qodir inson qilib tarbiyalashga qaratilgan va bola ongiga yoshlidan katta yoshli erkaklar tomonidan bu narsa singdirilgan. O'zbeklarda "erkaklik roli" ,deganda nafaqat jamoa doirasidagi sotsial vazifasi,balki oila ichidagi yetakchilik vazifasi, ota va er sifatidagi mas'ulyati ham singdirilgan.

L.P. Ilarionova ta'rifiqa ko'ra, oilaviy moslashuv – bu turmush o'rtoqlarning bir-biriga,oila joylashgan muhitga moslashishi va yosh turmush o'rtoqlarning fikrlari,his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirishda ifodalanadi. Moslashish jarayoni yosh oila hayotining barcha jabhalarida amalga oshiriladi,ammo ulardan eng dolzazblari; moddiy va maishiy,axloqiy va psixalogik,rol o'ynash,shaxslararo. Bu jarayondagi moslashishlar birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin. Yosh turmush o'rtoqlarning birlamchi moslashuvi munosabatlarning ikkita asosiy turida amalga oshiriladi: rol o'ynash va shaxslararo rol munosabatlari,ko'proq darajada, nikoh mativlarini aniq aks ettiradi:kimdir uchun bu yaxshi tashkil etilgan hayot,boshqalar uchun bu yaqin samimiyl munosabatlar. Shaxslararo moslashuv – bu jarayon o'zaro bog'liq uchta jihatga ega: effektiv,ya'ni

hissiy yaqinlikning mavjudligi, kognitiv –o’zaro tushunish darajasi va xulq-atvor,ya’ni o’zaro ta’sirni tashkil etish qobilyati. Umuman olganda bu ikki moslashish jarayonida beqaror juftliklar yoki barqaror juftliklar shakllanadi. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashishi ularning tanishuvi bilan boshlanib,oilaviy hayot bilan o’sib boradi. Bu jarayonda faoliyat va munosabatlarni qayta qurish bilan birglikda,shaxsiy jihatlarni ham qayta qurishni talab qiladi.Xususan,motivatsion ehtiyoj sohasini qayta qurish,yosh turmush o’rtoqlarning o’z-o’zini ongini o’zgartirish kabi. Oilaviy hayotning boshida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tahlil qilib ,E.S. Kalmikovaning takidlashicha, “birgalikda yashashning birinchi yoki ikki yili individual muloqot sterotiplarinini shakllantirish,qadryatlar tizimini uyg’unlashtirish,umumiyl xulq-atvor me’yorlarini ishlab chiqarish vaqt”. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashishdagi qiyinchilik davri aynan shu davrga to’g’ri keladi. Xususan, V.I. Barskiy nikoh uyg’unligi va oila mustahkamligining asosi siftida nikoh tuzayotgan yoshlarning axloqiy va psixalogik tayyorligini ko’rsatadi. Dubrovinaning fikricha: “yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash,shaxsning axloqiy dunyosini shakllantirish bilan bir qatorda, shaxs sifatida g’oyalarning maxsus tizimini,shu jumladan, ehtiyojlar,motivlar, qadriyat yo’nalishlarini shakllantirishni ham o’z ichiga oladi.O’zbek yoshlarining oilaviy hayotga moslashish jarayonini boshqa xalqlar bilan solishtiradigan bo’lsak, ma’lum farqlarni uchratish mumkin.

Bugungi kunda yoshlarning oilaviy hayotga moslashish jarayonini o’rganish uchun so’rovnomalardan foydalanildi. Respondent sifatida umumiyl o’nta asosan, 20-25 yoshdagি qizlar qatnashishdi. Ular orasida o’rta va oliy ma’lumotlilar, shahar va qishloq hududlarda istiqomat qiluvchilar mayjud. Shunday bo’lsada ularning yangi oilaviy hayotga moslashish jarayonidagi farqlar deyarli mayjud emas. Tadqiqotlar natijasi shuni ko’rsatdiki, respondentlarning 90 % ikki bo’g’inli katta oilada, faqatgina 10% nuklear oilada yashaydi. Qiziq tomoni shundaki, ikki bo’g’inli katta oilada yashaydigan (kelin bo’lgan) yoshlarning yangi oilaga ya’ni oilaviy hayotga moslashish jarayoni nuklear oilada yashaydiganlarga nisbatan qiyin kechgan. Xususan, oilaviy hayotga moslashish jarayonida ma’lum darajada qiyinchiliklarga uchradizmi degan savolga 90% yoshlar juda ko’p qiyinchilik bo’lganini qayd etishdi, e’tibor berish kerak bo’lgan jihat shundaki,bu javobni tanlaganlarning hammasi ikki bo’g’inli katta oilada yashaydigan yoshlar. Faqatgina 10% ni tashkil etgan nuklear oilada yashaydigan respondent oilaviy hayotga moslashishda unchalik qiyinchilikarga uchramaganini qayd etgan. Siz yangi oilaga qancha vaqtda moslasha boshladiz, bu jarayon qancha vaqt talab qiladi degan savolga 50% yoshlar 1 yil , 20% bir yildan ham ko’p, 30% yoshlar esa 3-4 oy deb javob berishgan. Bu jarayon qancha vaqt davom etishi yoshlarning xarakteri,dunyoqarashi bilan birgalikda ular kelin bo’lgan oila muhitiga ham bog’li jarayon hisoblanadi. Negaki, yangi oilaga moslashishda ko’pincha nimadan qiyaldingiz degan savolga 50% yoshlar muhitdan ,50% esa tushunmovchilikdan deya qayd etishgan. Chunki har bir oilada o’ziga xos muhit shakllangan

bo'lib,yangi muhitga ko'nikish ma'lum vaqt talab qiladi. Oilada turli yoshdagi shaxslar istiqomat qilishadi va ularning dunyoqarashi ham turlicha. Tadqiqotda qatnashayotgan respondentlarning 90% i ikki bo'g'imli katta oilada yashashidan kelib chiqadigan bo'lsak,ularning turli xarakterdagi insonlar bilan to'qnash kelgani tabiiy. Shunday bo'lsada, yangi oilada ko'proq kimlar bilan kelishmovchiliklar vujudga keldi degan savolga 40% yoshlar turmush o'rtog'im bilan, 30% qaynonam bilan, 30% oilaning boshqa a'zolari bilan deb javob berishgan. Bundan ko'riniib turibdiki, yosh kelinning yangi oilaga moslashib ketishida oila a'zolar bilan birgalikda uning turmush o'rtog'i ham asosiy ro'l o'ynaydi. Shu bilan birgalikda, bu jarayonda yosh masalasi ham mavjud. Moslashish jarayoning uzoq yoki qisqaligi yosh bilan qanchalik bog'liq degan savolga 40% yoshlar umuman bog'liq emas, 40% juda bog'liq , 20% bog'liq deb javob berishgan.

Ko'pgina tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, yoshlarning oilaviy hayotga moslashish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarnig asosiy sabablaridan biri bu ularning "tasavvuridagi oila shakli" dir, Aksariyat yoshlar o'z hayolida bo'lajak oilasi haqida ma'lum tasavvurlar yaratib olishadi va bunga ishonib qolishadi. Ularning bu tasavvurlari real hayotdan ancha uzoq bo'lib, muammolarning boshlanishiga sabab bo'ladi. Yangi oilaviy hayotga qadam qo'ygan yoshlar bu muhitdan o'z tasavvuridagi hayotni qidira boshlashadi. Lekin kamdan-kam holatlarda tasavvurdagi oilaga uchrashadi, Buni tadqiqot natijalari ham tasdiqladi.Xususan, siz kelin bo'lgan oila siz tasavvur qilgan oilaga qanchalik o'xshash bo'lib chiqdi degan savolga tadqiqotda qatnashgan yoshlarning 80% umuman boshqacha deb javob berishdi. Faqatgina 20% yoshlar o'xshash deb qayd etishdi. Shuningdek, yoshlar moslashish jarayonida o'z kamchiliklagini ham aytib o'tishdi. Xususan, yangi oilaga borganizda u yerga moslashisda nimadan qiyaldiz degan savolga 20% yoshlar kirishimli emasligimdan, 20 % dangasaligimdan, 60 % axloqimdan deya javob berishgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nuklear oilaga kelin bo'lgan yoshlarni oilaviy hayotga moslashish jarayoni 2 bo'g'inli katta oiladagi yoshga nisbatan kamroq muddat davom etdi va ularda bu jarayon bilan bog'iq muammolar ham kam uchraydi.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va so'rovnama natijalarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, yoshlarning oilaviy hayotga moslashishi ko'p jihatlarga bog'liq jarayon. Xususan, yoshlarning dunyoqarashi, xarakteri, ma'lum ma'noda ularning yoshiga. Bu jarayon yoshlarning psixalogiyasida ham o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Moslashish jarayonidagi qiyinchiliklarning birlamchi asosi sifatida muhitning o'zgarishini keltirish mumkin. Yoshlarning oilaviy hayotga moslashish jarayoni qiyinlashtiruvchi jihat sifatida ularda oilaga ma'naviy va axloqiy tayyorgarlikning yo'qligini keltirish mumkin. Aynan, shu masala bo'yicha yoshlarning fikri so'ralganda, ularning hech qaysisi bunday tayyorgarlik bosqichidan o'tmaganiklarini qayd etishdi. Ko'plab olimlar oilaga tayyorgarlikning muhimligini takidlashgan. Bu mulohazalardan ko'riniib

turibdiki, yoshlarning oilaviy hayotga moslashish jarayonida oilaga ma'naviy tayyorgarlik muhim omil sanaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Подготовка студенческий молодёжи к семейной жизни осознанному родительству : учеб.-метод. мат.ли / авт.сост.и.\ И.А. Комрова и др.. – Моглиев:УО<< МГУ им А.А.Кулешова>>, 2012.
2. Abduzohirov R.X. O'zbeklarda farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar masalasini o'r ganilish tarixshunosligi //O'tmishga nazar.2020,9-son.3-jild.
3. Халикова С.С Снегирева Д.А социальная адаптация супругов в первый год совместной жизни: социологический анализ // Электронное научное издание <<Ученые заметки ТОГУ >> 2016, Том 7, № 4.
4. Арапбаева Д.К. Ёшларнинг оиласи таълими тарбияси мослашувидаги маънавий ахлоқий масалалар// Замонавий таълим.2016.5.
5. Убайдуллаева Б . Ўзбекларнинг ёш авлод тарбияси борасидаги анъаналари ва замонвийлик (Этнологик ва этносоциологик тадқиқотлар асосида). – Т.:Yangi nashr,2010.
6. Социологик сўров натижаси. Жиззах.2022
7. Omonov, Q., & Karimov, N. (2020). Importance Of Ancestral Heritage. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(09), 196-202.
8. Karimov, N. R. (2020). A True Successor of Great Central Asian Scholars. *Journal «Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research,(7)*, 62-69.
9. Orifjonova, G. R. EMBROIDERY ART OF UZBEKISTAN. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*.
10. Orifjonova, G. R. (2022). PECULIARITIES OF SURKHANDARYA ETHNOCULTURAL CLOTHING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY (2767-472X)*, 3(01), 21-25.